

PEDAGOGNING NUTQ MADANIYATIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Otaboyeva Mag`zuna Baxrombek qizi
JDPU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining nutq madaniyati, tarbiyachi nutqiga qo'yiladigan talablar va pedagog nutqining kommunikativ sifatlari yoritilgan..*

Kalit so'zlar: *Nutq, adabiy nutq, jargon, vulgarizm, varvarizm, kommunikativ, nutq texnikasi, nutq sofligi.*

Аннотация: *В данной статье описывается речевая культура воспитателей современной дошкольной образовательной организации, требования к речи воспитателя, коммуникативные качества речи педагога.*

Ключевые слова: *Речь, литературная речь, сленг, вульгарность, варварство, коммуникативность, речевая техника, чистота речи.*

Annotation: *This article describes the speech culture of educators of a modern preschool educational organization, the requirements for the educator's speech, the communicative qualities of the teacher's speech.*

Key words: *Speech, literary speech, slang, vulgarity, barbarity, communication, speech technique, speech purity.*

Hozirgi kunda ilm-fan texnika va yangi innovatsiyalar taraqqiy etib borayotgan bir davrda yurtimizni yanda yuksalishi uchun kerak bo'lgan oliy malumotli mutahassis va kadrlarni yetishtirib berish pedagoglar oldida bir qancha maqsad va talablar qo'yimoqda. Eng avvalo pedagog yosh avlodni tarbiyalashdek burch va mas'uliyatni zimmasiga olar ekan, o'zi pedagoglik kasbi talablariga javob beragigan boshqa insonlardan o'zining shaxsiy va kasbiy sifatlariga:

- bolani sevishi ;
- insonparvarlik;
- mehribonlilik;
- nutq madaniyati;
- o'z kasbi bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lish;
- kreativlilik;
- mas'uliyatlilik;

va hokazo kabi fazilat va sifatlarga ega bo'lishi kerak.

Til- aloqa quroli, til-hayot ko'zgusi, til-ma'naviyat belgisi. Insoni hayvonot olamidan ajratib, uni koinot sarvariga va gultojiga aylantirgan omil ham tildir.

Inson aqliy faolyatining eng oliy mahsullari, tafakkur "mevalari" til va nutq orqali yuzaga chiqadi.

Til qanchalik zo`r bo`lmasin, u nutq uchun qurol sifatida hizmat qilar ekan. Uning kuch qudrati nutq jarayonida namoyon bo`lar ekan. Agar til o`q bo`lsa nutq kamondir. O`qning qudrati, kamoning qudratiga ham bog`liq.

Har bir tarbiyachi adabiy tilning har ikki shakli – yozma va og`zaki shakl me`yorlariga amal qilgan holda ya`ni tur hil jargon so`zlar, vulgarizm, varvarizmlardan foydalanmasligi lozim.

Nutqda o`rinsiz ishlatilgan boshqa tillarga oid so`zlar varvarizmlar deb ataiadi.

Vulgarizmlarga axloq me`yorlariga to`g`ri kelmaydigan; kishini so`kishda, haqoratlashda ishlatiladigan so`zlar kiradi.

Jargon-biror guruh vakillarining, o`z nutqi bilan ajralib turish maqsadida, o`zicha mazmun berib, ishlatadigan so`z va iboralari.

Har bir pedagog o`z kasbining mohir ustasi bo`lishi uchun madaniy nutqning asosiy kommunikativ sifatlariga ega bo`lishi lozim.

Nutqning madaniyligini ta`min etadigan to`g`rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, soflik, boylik, jo`yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud.

Ana shu kommunikativ sifatlarining barchasini o`zida mujasamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi.

Quyidagi o`qituvchining nutq ma`danyatiga xos bo`lgan vositalarni pedagog – tarbiyachi unutmashligi kerak:

1. Nutq madaniyati o`qtuvchining ma`naviy –axloqiy kamoloti tarkibiy qismidir. Zero nutq, millatimiz erishgan madaniyat darajasini ko`rsatuvchi, o`z ona tilimizga e`tiqodni namoyish etuvchi yorqin va ishonchli dalildir.

2. Nutq madanyati o`qtuvchilarni ma`naviy va madaniy saviyasi bilan hamda adabiy tilni mukammal bilishi bilan boshqa kasb egalaridan ajratib turadi.

3. Nutq madanyatining pirovard maqsadi erin fikr egasi bo`lib yetishishidan qat`iy nazar ma`naviy jihatdan tarbiyalash .

4. Nutq madanyati-bu, avvalo, o`qituvchilarda nutqiy ko`nikma va nutqiy malakalarni hosil qiladi. Bu ko`nikma pedagogik faoliyatda takomillashib boradi, maxsus mehnat va mashqlar evaziga malaka oshiriladi hamda erishilgan muvaffaqiyatlar tufayli qobiliyat va mahorat shakllanadi.

5. Nutq madanyatiga o`zbek adabiy tilini mukammal egallash asosida erishiladi. Buning uchun o`qituvchi adabiy til qonunyatlarini bilishi badiiy adabiyot asarlarini doimiy o`qib borishi, she`rlar yod olishi va uni ifodali o`qiy olishi, radio va televideniya eshittirishlarini kuzatib borishii lozim.

6. Nutq madanyatini egallashning yana bir ko`rinishi nutqiy taqlid bo`lib, yosh o`qituvchilar o`zidan yaxshiroq, chiroyliroq, ma`noli va ta`sirchan nutq so`zlaydigan ustoz-murabbiylarning nutqiy san`atiga havas bilan qarashi va taqlid qilishi asosida o`rganishi mumkin.

Bo`ljak pedagog -tarbiyachi o`z nutqida quydagi sifatlarni shakllantirgan bo`lish kerak:

1. Nutqning to`g`riligi.

2. Nutqning aniqligi.
3. Nutqning tozaligi.
4. Nutqning mantiqiyliigi.
5. Nutqning ta'sirchanligi.
6. Nutqning maqsadga muvofiqligi

Mana shu sifatlarni o'z nutqida jamlagan pedgog o'zining go'zal va betakror nutq madaniyati bilan boshqa insonlardan ajralib turadi va har doim xalq ardog'ida bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki har bir inson o'z ona tilisini sevishi va uni mukammal o'rganishi, uning noyob, takrorlanmas jozibasidan bahra olishi va so'zlarini nutqida aniq, soda, ravon, ta'sirchan va tushunarli holatda qo'llay olishi lozim. Insonning nutqi qanday go'zal bo'lsa, uning qalbi ham shunday go'zal bo'ladi. Go'zal qalbli insonlar esa faqat yuksaklik tomon parvoz qilib yuqori cho'qqi va marralarni zabt etadi.

Demak, pedagog –tarbiyachi yurtimizning buguni, ertasi va kelajagi bo'lgan yosh avlodga ta'lim –tarbiya berar ekan, yosh avlodni har jihatdan yetuk, intellektual salohiyat va qobliyatlariga ega bo'lgan, yurtumizni taraqqiyotiga o'z xissasini qo'shadigan barkamol shaxsni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, bu maqsadga erishish uchun o'z nutqi madanyatiga katta e'tibor berishi lozim, faqat shundagina o'z maqsadlariga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

1. N.Mahmudov. "O'qtuvchi nutqi madaniyati" Toshkent 2007-yil. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashiryoti. 42-bet.
2. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latva, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika" T: Tafakkur. Toshkent 2019. 108-109 bet. Darslik
3. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish nazaryasi va metodikasi (darslik).-T: "Barkamol fayz mediya", 2018,-110 –bet.
4. R.Rasulov, N.Husanov, Q.Mo'ydinov. "Nutq madaniyati va notiqliq san'ati", (o'quv qo'llanma) . Toshkent 2006. 28-29-35- bet.